

**NAVOIY VILOYATI HUDUDIDA TARQALGAN TUYALAR OILASI
VAKILLARINI YETISHTIRISHDA VUJUDGA KELAYOTGAN
MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA
MULOHAZALAR.**

Navoiy davlat Universiteti 03.00.06 – Zoologiya ixtisosligi 1-kurs

*doktoranti **Xalilova Lobar Umarovna***

muhammadabdimuminov7@gmail.com (Tel raqam: 94-4822939)

Respublikamizda tuyalar bosh soni 18 427 boshga yetdi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 1-yanvar holatidagi axboroti). O'zbekistonning to'rtta hududida tuyalar keng tarqalgan: Navoiy viloyati – 44,3 %, Qoraqalpog'iston Respublikasi – 24,1 %, Buxoro viloyati – 11,9 %, Qashqadaryo viloyati – 8,1 %. Boshqa viloyatlarda esa jami tuyalarning atiga 11,6 % qismini uchratish mumkin. Respublikamizda tuyalardan asosan sut, go'sht va jun sanoati uchun foydalaniladi.

Respublikamizda tuyalarning invazion va yuqumli kasalliklarini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari kompleks ravishda olib borilmagan. Shu boisdan tuya parazitlarining tur tarkibini aniqlash, parazitozlarning epizootologik holatini baholash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, parazitlar kasalliklar tuyalar populyatsiya soniga va ularning mahsuldorlik ko'rsatkichlariga sezilarli darajada ta'sir qilishi masalaning dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatda chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish orqali chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash, chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalangan holda rivojlantirish borasida davlat rahbarining qator farmon va qarorlari qabul qilinib sohani rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Veterinariya va chorvachilik sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida" 2019-yil 28-martdagi PF-5696-son Farmonida "...veterinariya sohasi va barcha tarmoqlarini rivojlantirish, epizootik barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda kasallikka chidamli hayvon turlarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish" kabi vazifalar begilangan.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, Navoiy viloyatida tarqalgan tuyalar parazitlarining tur tarkibini aniqlash, asosiy parazitozlariga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish, parazitozlarning epizootologik holatini aniqlash, kasallik qo'zg'atuvchilarining ekologiyasi, biologiyasi va rivojlanish bosqichlarini tadqiq etgan holda kasallikni o'z vaqtida tashxislash va oldini olishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, muhim epizootologik ahamiyatga ega turlar ustida molekulyar-genetik tadqiqotlar o'tkazish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu izlanishlarimiz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son , 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696-son Farmonlari, 2019 yil 7 noyabrdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasida chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4512-son va 2022 yil 31 martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-187-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Navoiy viloyati hududida tuyalar tarqalish darajasi respublika miqyosida birinchi o'rinda(44,3%) turadi. Bu esa respublika aholisining tuya mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining asosiy qismini ushbu hududdagi tuyachilik fermer xo'jaliklari tomonidan qoplanishini anglatadi. Navoiy viloyati veterinariya tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra viloyat hududida jami 1439 bosh tuya boqiladi. Ularning 1090 boshini erkak tuyalar, 323 boshini ona tuyalar va 129 boshini bo'taloqlar tashkil etadi. Tuyalar boqiladigan hududlar asosan Uchquduq, Tomdi, Konimex tumanlari va Zarafshon cho'llaridir. Ushbu hududlarda tuya boqish uchun ajratilgan jami yer

maydoni 31855,5 gektarni tashkil etadi. Shundan 14100 ga Uchquduq tumani ulushiga, 12123,5ga Tomdi tumani hududiga, 5632ga maydon Konimex tumani hududiga to'g'ri keladi. Viloyat hududida jami 29 dan ortiq tuyaxonalar mavjud bo'lib, ularning sig'imi umumiy 2680 bosh tuyani yetishtirishga yetadi. Bu tuyaxonalarning 3tasi Konimex tumanida, 16 tasi Tomdi tumanida, 10tasi Uchquduq tumanida joylashgan. Tuyalarning sog'lomligi, ular boqilayotgan hududlarning sanitar holati, yemishlarining mo'lligi, ular ustida izlanishlar olib borish, xo'jaliklar sharoitlarini yaxshilash ularning mahsuldorligini oshishiga va yaxshi foyda olishga sabab bo'ladi. Navoiy viloyati cho'l hududlaridagi tuyachilik fermer xo'jaliklari o'rganilganda, aholi yashash manzillarining kengayishi, cho'l hududlaridan o'tadigan transport yo'llari, tuyalarning tarqalishiga va ozuqa topishiga salbiy ta'sir etayotgani ma'lum bo'ldi. Tuyalar boqilayotgan hududga yaqin joylarda zavodlarning ishlab turganligi u yerdagi cho'l o'simliklarining bo'yiga, hosildorligiga va miqdoriga tubdan ta'sir o'tkizmoqda. Bu esa ular bilan oziqlanadigan cho'l hayvonlarini ozuqadan to'yimasligiga va oziq izlab turar joyidan uzoq hududlarga ketishiga, bu esa ularning chanqashiga, horg'inligiga, mahsuldorlikning pasayishiga olib kelishi aniqlandi. Transport vositalari tuyalarni urib yuborayotganligi va bu fermer xo'jaligiga va ulardan kutilayotgan mahsuldorlikka bevosita ta'sir o'tkazayпти. Chunki tuya boshqa chorvachilik hayvonlari turlaridan vazn va kattalik jihatidan yetarlicha miqdorda farq qiladi.

Tuyalarda uchraydigan parazitlar ham ularning tana vazni pasayishiga, holsizlanishiga, ishtaha pasayishiga, organlar faoliyatini izdan chiqarishiga va bu belgilar to'g'ridan to'g'ri mahsuldorlikka, xususan, ulardan olinadigan go'sht, sut va jun miqdorining keskin kamayishiga olib kelmoqda.

Tuyachilik xo'jaliklarida ko'p hollarda ular qoramol va qo'ylar bilan bir yerda saqlanishi ularning mahalliy gelment va turli parazitlarini biri biriga yuqishiga olib kelmoqda. Bu ham eng keng tarqalgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tuyachilikni rivojlantirish - chorvachilikning asosiy foyda keltiradigan tarmog'ini qo'llab quvvatlash, soha muammolarini bartaraf etish har qachongidan dolzarb vazifaga aylanmoqda. Tuyachilikda uchrab turgan mavjud

muammolarga qarshi chora ishlab chiqish va ular boqilayotgan yerlardagi sanoat korxonalarini zararini nazoratga olish va yetarli ozuqa bilan ta'minlanishini kuzatib borish soha rivoji oldidagi muhim vazifalardandir. Agar ularda uchraydigan parazitlarni yo'qotish uchun o'z vaqtida yetarlicha tadbirlar o'tkazilmasa, ilmiy o'rganilmasa, ularning parazitlarida chidamlilik xususiyati yildan yilga ortib boraveradi. Natijada parazitlardan qutilishda qiyinchiliklar kelib chiqadi.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 28 мартдаги “Ветеринария ва чорвачилик соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5696-сон фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 31 мартдаги “Ветеринария ва чорвачилик соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги ПҚ-187-сон қарори.
4. <https://doi.org/10.3390/vetsci11100503>.
5. Dadayev S., To'ychiyev S., Haydarova P. Umurtqalilar zoologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. — T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2005.
6. Догель В.А. Зоология беспозвоночных. — М.: Вѳсшая школа, 1982. .
- 7.. Кузнецов Б.А., Чернов А.З., Катонova Л.Н. Курс зоологии. — М.: Агропромиздат, 1989,
8. Mavlonov O., Usmonova O., NorboyevZ., Rasulov H. Zoologiya (umurtqasiz hayvonlar). —T.: O'qituvchi, 1992.
9. Mavlonov O., Dadayev S. Umurtqasizlar zoologiyasi. Ma'ruzalar matni. — T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2001
10. Mavlonov O., Xurramov Sh., Norboyev Z. Umurtqasizlar zoologiyasi. — T.: O'zbekiston, 2002.

11. Naumov S.P. Umurtqali hayvonlar zoologiyasi. Darslik. — T.: O'qituvchi, 1995.
12. Потапов И.В. Зоология с основами экологии животных. — М.: Академия, 2001.